

O‘zbekiston Respublikasi



**“O‘ZTRANSGAZ”
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**“O‘zbekistonda gaz sizib chiqishini ta‘mirlash mexanizmi”
loyihasi (P508941)
uchun**

MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK REJASI

2025-yil, oktabr

Mundarija

1. KIRISH/LOYIHA TAVSIFI	4
2. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK REJASINING MAQSADI/TAVSIFI	6
3. MANFAATDOR TOMONLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH	6
3.1 Metodologiya	6
3.2. Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar va boshqa manfaatdor tomonlar	6
3.3. Zaif/Ehtiyojmand shaxslar va guruhlar	7
4. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK DASTURI	8
4.1. Loyihani tayyorlash jarayonida manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlikning qisqacha tavsifi	8
4.2. Loyihaning manfaatdor tomonlari ehtiyojlari, shuningdek, manfaatdor tomonlarni jalb qilish usullari, vositalari va texnikasi haqida qisqacha ma'lumot	8
4.3. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasi	11
4.4. Manfaatdor tomonlarga hisobot berish	18
5. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK TADBIRLARINI AMALGA OSHIRISH UCHUN RESURSLAR VA MAS'ULIYATLAR	19
5.1. Resurslar	19
5.2. Boshqaruv funksiyalari va majburiyatlar	19
6. SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI.....	20
6.1. SHKM tavsifi	20
6.2. SHKM tuzilmasi	21
6.3. Shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi.	21
7. MONITORING VA HISOBOT BERISH	24
7.1. MHRni amalga oshirish bo'yicha monitoring va hisobot berish tartibining qisqacha tavsifi	24
1-ilova. Jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar xulosasi	26
2-ilova: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik bo'yicha o'tkazilgan uchrashuvdan fotosuratlar (Yangi Toshkent, Yuqori Chirchiq, Toshkent viloyati, 2025-yil 3-oktabr)	27
3-ilova: Ishtirokchilar ro'yxati (imzolangan ro'yxat)	28
4-ilova: "O'ZTRANSGAZ" AJ tomonidan manfaatdor tomonlarga yuborilgan taklifnoma	29
5-ilova. Shikoyat arizasini topshirish shakli namunasi	31

Qisqartmalar

AHN	-	Amalga oshirish holati va natijalar
AIBM		Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv mexanizmi
AIM		Atrof-muhit va ijtimoiy mexanizm
BM	-	Boshqa manfaatdor tomonlar
EIMR-		Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasi
EIS	-	Ekologik va ijtimoiy standartlar
FJ	-	Fuqarolarni jalb qilish
IMV		Iqtisodiyot va moliya vazirligi
LBG	-	Loyiha boshqaruvi guruhi
LRM	-	Loyihani rivojlantirish maqsadlari
LTH	-	Loyihaning taʼsir hududi
LTT	-	Loyiha taʼsir koʻrsatgan tomonlar
MBT	-	Mehnat resurslarini boshqarish tartiblari
MHR	-	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasi
NNT	-	Nodavlat notijorat tashkiloti
OʻGSTM-		“Oʻzbekistonda gaz sizib chiqishini taʼmirlash mexanizmi” loyihasi
OʻTG	-	OʻZTRANSGAZ
OʻzH	-	Oʻzbekiston hukumati
SHKM	-	Shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi
SHKQ	-	Shikoyatlarni koʻrib chiqish qoʻmitasi

1. KIRISH/LOYIHA TAVSIFI

1. “O‘zbekistonda gaz sizib chiqishini ta‘mirlash mexanizmi” loyihasi mamlakatdagi gaz sohasi bo‘yicha davlat korxonalarida metan chiqindilarini kamaytirish va aktivlarni boshqarish salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur loyiha doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) huzurida foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan moliyalashtirish mexanizmi yaratiladi va bu vosita “O‘ZTRANSGAZ” AJ (O‘TG) davlat gaz transport operatorining amaldagi obyektlarini ta‘mirlash ishlarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Bu moliyalashtirish mexanizmi faoliyati Metanni yoqish va chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha global trust jamg‘armasi (GFMR) ajratadigan dastlabki 10 million AQSh dollari granti bilan boshlanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ajratiladigan mablag‘lar metan yo‘qotilishini kamaytirish maqsadidagi bir qator ta‘mirlash choralari uchun yo‘naltiriladi. Taklif etilayotgan ta‘mirlash tadbirlari davlat korxonalarini tomonidan oldindan belgilangan muvofiqlik mezonlariga asosan doimiy ravishda taqdim etiladi. Sof foyda maksimal darajada bo‘lishi uchun bunday tadbirlar ularning qiymati, murakkabligi, ta‘sir salohiyati va boshqa tegishli mezonlar asosida ustuvor tartibda ajratiladi. Shuningdek, OGMP 2.0 standarti bo‘yicha metan chiqindilarini monitoring qilish, hisobot berish va tasdiqlash bo‘yicha davlat korxonalarining salohiyatini oshirishga ham investitsiya yo‘naltiriladi. Moliyaviy mexanizmning asosiy jihati shundaki, unda ilgari nazoratsiz chiqindilar tarzida yo‘qolgan gazni rekuperatsiya qilish (qayta tiklash) hisobiga olingan moliyaviy tejashning bir qismi, qo‘shimcha kapital jalb etishni ta‘minlash uchun ushbu mexanizmga qayta investitsiya qilinadi. Bu esa, taklif qilinayotgan yondashuvni kengaytirish va asta-sekin gaz sanoatining davlat sektori ehtiyojlarini to‘liq qoplash uchun amal qilishini bildiradi. Mazkur mexanizm doirasida dastlab GFMR granti hisobidan moliyalashtiriladigan ruxsat etilgan tadbirlar O‘TGning faqat yuqori bosimli gazkomprEISor stansiyalaridagi ta‘mirlash ishlarini, shuningdek, guruh hisoblagichlari, metan chiqindilarini o‘lchash uskunalari, kichik ta‘mirlash jihozlari (masalan, biriktirgichlar, klapanlar, quvurlarni kichik qismlari) xarid qilish va o‘rnatish, gaz sizib chiqishini aniqlash va uni bartaraf qilish (LDAR) guruhlari uchun tegishli kiyim va shaxsiy himoya vositalari, shuningdek, gaz sizib chiqish holatlarini bartaraf etish dasturi doirasidagi pudrat xizmatlarini o‘z ichiga oladi.
2. O‘GSTM quyidagi 3 komponentni o‘z ichiga oladi:
 - A. **Loyihadan moliyalashtiriladigan tadbirlar tarkibiga eskirgan gaz infratuzilmasini dastlabki loyihaviy texnik talablarga muvofiq ta‘mirlash, shuningdek, ta‘mirlash imkoni bo‘lmagan mayda qismlarni almashtirish kiradi (A komponenti).** Bu ishlar faqat O‘TG tasarrufida va boshqaruvida bo‘lgan, devor bilan o‘ralgan hududlardagi obyektlar doirasida amalga oshiriladi. Muhimi shundaki, loyiha mablag‘lari uchinchi shaxslarga tegishli yerlarida ish olib borish uchun ishlatilmaydi. Gaz sizib chiqish holatlari aniqlanishi barobarida, O‘TG oldindan kelishilgan tanlov mezonlariga muvofiq, taxminiy xarajatlar va kutilayotgan chiqindi kamaytirish salohiyatini inobatga olgan holda tegishli ta‘mirlash tadbirlarini jamg‘arma hisobidan moliyalashtirish uchun muntazam tavsiya qilib boradi. Shaffoflik va mustaqil nazoratni ta‘minlash maqsadida, moliyalashtirish uchun taklif etilgan barcha tadbirlar ko‘rib chiqish uchun IVMga taqdim etiladi. O‘TG vaqti-vaqti bilan oldindan kelishilgan protokolga muvofiq bartaraf etilgan sizib chiqish holatlari natijasida erishilgan gaz tejalishi haqida hisobot beradi. Belgilangan davr uchun olingan moliyaviy tejashning oldindan belgilab qo‘yilgan qismi Mexanizmga qayta investitsiya qilish uchun zaxiralab boriladi. A komponenti, shuningdek, sizib chiqish holatlarni aniqlash, o‘lchash va monitoring qilish uchun uskunalari, obyekt hududida ishlash uchun shaxsiy himoya vositalari hamda chiqindilar monitoringi uchun raqamli yechimlarni xarid qilishni ham o‘z ichiga oladi.
 - B. **Bundan tashqari, loyiha doirasiga O‘TGning metan chiqindilarini monitoring qilish, hisobot berish va tasdiqlash (MHT) bo‘yicha xalqaro standartlar va neft-gaz sohasidagi eng yaxshi amaliyotlarga, xususan, Oil and Gas Methane Partnership (Neft va gaz sohasida metan chiqindilarini kamaytirish**

bo'yicha hamkorlik) (OGMP) 2.0 oltin standartiga muvofiq salohiyatini rivojlantirish uchun investitsiyalar ham kiradi (**B komponenti**).

C. Moliyaviy mexanizmning o'zi davlat (yoki davlat kompaniyalari) tuzilmalari o'rtasidagi moliyaviy oqimlar ustidan shaffoflik va mustaqil nazoratni ta'minlash uchun IMV tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi. IMV ushbu Mexanizm orqali moliyalashtirilishi taklif etilgan ta'mirlash tadbirlarini ko'rib chiqish va ushbu Mexanizmdan barcha moliyaviy operatsiyalarni tasdiqlash uchun vakil tayinlaydi. O'TG Jahon banki loyhasining taklif etilayotgan Ijrochi agentligi sifatida qatnashadi va loyihani kundalik boshqarish, jumladan monitoring va baholash, amalga oshirish bo'yicha hisobot tayyorlash, xaridlar, moliyaviy boshqaruv, shu jumladan moliyaviy hisobot yuritish, ekologik, ijtimoiy va boshqa xavflarni boshqarish uchun mas'ul bo'ladi. Shuningdek, zarurat tug'ilganda loyihaga loyiha amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida Ijrochi agentlik uchun maslahat xizmatlarni xarid qilish bo'yicha kichik komponent ham kiritiladi (**C komponenti**) kiritiladi.

3. **Loyihaning joylashuvi.** Bu loyiha O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi (1-rasm). U O'zbekistondagi gaz sohasi bo'yicha davlat korxonalarida metan chiqindilarini kamaytirish va aktivlarni boshqarish salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan.



1-rasm: O'zbekiston va qo'shni davlatlar xaritasi

4. O'GSTM Jahon bankining Atrof-muhit va ijtimoiy mexanizmiga (AIM) muvofiq ishlab chiqiladi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik va axborotni oshkor etish bo'yicha Atrof-muhit va ijtimoiy standartlariga (EIS10) muvofiq, ijrochi agentliklar manfaatdor tomonlarga o'z vaqtida, tegishli, tushunarli va ochiq ma'lumotlarni taqdim etishlari, shuningdek, ular bilan madaniy jihatdan maqbul tarzda, manipulyatsiya, aralashuv, majburlash, kamsitish yoki qo'rqitishdan xoli tarzda maslahatlashishlari lozim bo'ladi.

2. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK REJASINING MAQSADI/TAVSIFI

5. Ushbu Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasining (MHR) umumiy maqsadi manfaatdor tomonlarni jalb qilish dasturini belgilash, shu jumladan loyihaning butun faoliyat davri davomida jamoatchilik uchun ma'lumotlarni oshkor qilish va maslahat berishdir. MHR loyiha jamoasining manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilish usullarini tavsiflaydi va odamlar o'zlarining tashvishlarini bildirishlari, fikr-mulohaza bildirishlari yoki loyiha faoliyati yoki loyiha bilan bog'liq boshqa har qanday faoliyat yuzasidan shikoyat qilishlari mumkin bo'lgan mexanizmni o'z ichiga oladi.

3. MANFAATDOR TOMONLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

3.1 Metodologiya

6. Ilg'or amaliyotlarga muvofiq loyihada manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi tamoyillari qo'llaniladi:
 - **Ochiqlik va loyihaning butun faoliyat davrini qamrab oluvchi yondashuv:** Loyiha(lar) bo'yicha jamoatchilik maslahatlari loyiha(lar)ning butun faoliyat davri mobaynida ochiq tarzda, tashqi manipulyatsiya, aralashuv, majburlash yoki qo'rqitishsiz tashkil etiladi.
 - **Xabardorlik asosidagi ishtirok va fikr-mulohaza berish:** Ma'lumotlar barcha manfaatdor tomonlarga tegishli shaklda taqdim etiladi va keng tarqatiladi; manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini olish, shuningdek, sharhlar va savollarni tahlil qilish hamda hal etish imkoniyatlari yaratiladi.
 - **Inklyuzivlik va sezgirlik:** Manfaatdor tomonlarni aniqlash muloqotni yaxshilash va samarali munosabatlar o'rnatish uchun amalga oshiriladi. Loyihalarda ishtirok etish jarayoni inklyuziv hisoblanadi. Barcha manfaatdor tomonlar doimo maslahatlashuv jarayonida ishtirok etishga rag'batlantiriladi. Barcha manfaatdor tomonlarga axborotdan teng foydalanish imkoniyati beriladi. Manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini hisobga olish o'zaro hamkorlik usullarini tanlashda asosiy tamoyil hisoblanadi. Xavf ostida qolishi va loyihada ishtirok etmasligi mumkin bo'lgan zaif guruhlariga, xususan, ayollar, keksalar, nogironlar, ko'chirilgan shaxslar, mehnat muhojirlari va ularning jamoalariga, shuningdek, turli etnik guruhlarining madaniy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.
 - **Moslashuvchanlik:** MHR manfaatdor tomonlar bilan onlayn forumlar yoki telefon orqali muloqot qilish uchun moslashuvchan imkoniyatlarga ega bo'ladi.

3.2. Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar va boshqa manfaatdor tomonlar

7. Loyihaning manfaatdor tomonlari deb loyiha faoliyati ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, uning natijalariga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar, tashkilotlar yoki boshqa subyektlar tushuniladi. Tahlil butun loyiha faoliyat davri davomida manfaatdor tomonlarning har bir toifasi uchun mos keladigan metodologiyani belgilaydi. Manfaatdor tomonlar bilan maqsadli va mazmunli hamkorlikni ta'minlash uchun ular quyidagicha tasniflanadi:
 - i. **Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar (LTT):** bularga loyihaning ta'sir doirasidagi shaxslar, guruhlar/jamoalar va boshqa subyektlar kiradi, ularga loyiha bevosita yoki bilvosita, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi yoki ko'rsatishi mumkin.
 - ii. **Boshqa manfaatdor tomonlar (BMTT):** ular loyihadan manfaatdor bo'lishi mumkin va loyiha manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hamda loyiha natijalariga qandaydir tarzda ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslar yoki guruhlarni o'z ichiga oladi.

1-jadval: Manfaaddorlarni aniqlash

Tomon	Manfaaddor tomonlar
<p>Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar (LTT) Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlarga mahalliy hamjamiyatlar, mahallalar aholisi va loyihaning bevosita ta'siriga duch kelishi mumkin bo'lgan boshqa tomonlar kiradi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston Energetika vazirligi va uning idoraviy mansub tashkilotlari • "O'ZTRANSGAZ" AJ (shu jumladan hududiy boshqarmalar) • "HUDUDGAZTA'MINOT" (shu jumladan hududiy boshqarmalar) • "Yordamchi Xo'jalik" MCHJ • "Transgazmaxsusqurilish" AJ • "Transgazinjining" MCHJ • "Urganchtransgaz" UK • "O'zGazTreyd" AJ
<p>Boshqa manfaaddor tomonlar Loyihaning manfaaddor tomonlariga, shuningdek, bevosita ta'sir ko'rsatadigan jamoalar bo'lmagan tomonlar ham kiradi, jumladan:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Iqtisodiyot va moliya vazirligi; • Qishloq xo'jaligi vazirligi; • Suv xo'jaligi vazirligi; • Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi; • Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi • O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi • O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi • Yong'in xavfsizligi boshqarmalari • Tuman hokimliklari; • "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati; • "O'zsuvta'minot" aksiyadorlik jamiyati; • Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi • Ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni himoya qiluvchi va loyihaning hamkori bo'lishi mumkin bo'lgan, respublika, viloyat va tuman darajalaridagi fuqarolik jamiyati guruhlar va NNT; • Uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchi korxonalar (masalan, birjalar, tasdiqlash agentliklari, konsalting kompaniyalari); • Ijtimoiy tarmoqlar; • Pudrat tashkilotlarining vakillari; • Biznes hamkorlar

3.3. Zaif/Ehtiyojmand shaxslar va guruhlar

8. Loyiha doirasida Zaif yoki noqulay ahvolga tushib qolgan guruhlar, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
- (i) **Nigironlar:** harakatlanish, eshitish va ko'rish qobiliyatining buzilishi kabi jismoniy cheklolarga ega bo'lgan shaxslar.
 - (ii) **Malakasiz kishilar:** Odatda maxsus ko'nikma yoki rasmiy ma'lumot talab qilmaydigan ishlarni bajaradigan shaxslar.
 - (iii) **Ayollar:** Homilador ayollar va yosh bolali ayollar qulay sharoitlar va bilim yetishmasligi tufayli zaif deb hisoblanadi.

(iv) **Keksa odamlar:** bunday shaxslar qulaylik, onlayn vositalar va aloqa kanallari bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lmisligi mumkin, bu esa ularning loyiha tadbirlarida ishtirok etishini qiyinlashtiradi.

9. Loyiha ta'sir ko'rsatgan mahallalardagi zaif guruhlar qo'shilishi, qo'shimcha ravishda tasdiqlanishi va zarur bo'lganda maxsus vositalar yordamida ular bilan maslahatlashuvlar o'tkazilishi mumkin. Loyiha doirasida amalga oshiriladigan o'zaro hamkorlik usullarining tavsifi keyingi bo'limlarda keltiriladi.

4. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK DASTURI

4.1. Loyihani tayyorlash jarayonida manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlikning qisqacha tavsifi

10. Loyihaning tayyorgarlik bosqichi doirasida 3-oktyabr kuni konstruktiv hamkorlikni ta'minlash va tegishli manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini to'plash uchun manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi. Ushbu maslahatlashuvlarda davlat organlari, mahalliy hokimliklar va boshqa muhim tashkilotlar ishtirok etdi.

- 2025-yil 3-oktyabr kuni Toshkent viloyatining Yangi Toshkent, Yuqori Chirchiq shaharlarida Jahon banki ko'magida "O'ztransgaz" AJ tomonidan tashkil etilgan jamoatchilik maslahatlashuvlari bo'lib o'tdi. Uchrashuvdan ko'zlangan maqsad "O'zbekistonda gaz sizib chiqishini ta'mirlash mexanizmi" loyihasi taqdimoti, uning maqsadlari, ko'lami va kutilayotgan ekologik va ijtimoiy oqibatlar haqida ma'lumot berishdan iborat edi. Tadbirda turli vazirliklar, huquq-tartibot organlari va texnik idoralar vakillari ishtirok etdi. Maslahatlashuvlar davomida loyiha jamoasi asosiy ma'lumotlarni taqdim etdi va manfaatdor tomonlar bilan ularning muammolarini hal qilish va muhokama qilish uchun o'zaro hamkorlik qildi, loyihani rejalashtirish va amalga oshirishda tegishli davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini to'plash va hisobga olishni ta'minladi (1-4-ilovalarga qarang).

11. Maslahatlashuvlar davomida Jahon bankining roli va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash uchun uning Atrof-muhit va ijtimoiy mexanizm (AIM) talablari qisqacha bayon etildi. Maslahatlashuvlar manfaatdor tomonlarga o'z xavotirlarini bildirish, muammolarni aniqlash va ma'lumotlar almashish siyosatining loyiha maqsadlariga muvofiqligini muhokama qilish uchun imkoniyat yaratdi. Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari metanning nazoratsiz chiqindilarini kamaytirish va O'zbekiston gaz sektoridagi davlat kompaniyalarida aktivlarni boshqarish salohiyatini kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

12. Maslahatlashuvlar davomida bildirilgan barcha fikr-mulohazalar va takliflar tegishli tarzda qayd etildi va ekologik va ijtimoiy jihatlariga aloqador yakuniy hujjatlarga kiritiladi. AIMning yakuniy hujjatlari, shu jumladan MHR loyihani baholashdan oldin "O'ZTRANSGAZ" AJning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi, bu esa shaffoflik va manfaatdor tomonlar bilan doimiy aloqani ta'minlaydi.

4.2. Loyihaning manfaatdor tomonlari ehtiyojlari, shuningdek, manfaatdor tomonlarni jalb qilish usullari, vositalari va texnikasi haqida qisqacha ma'lumot

13. Loyiha doirasida har qanday faoliyatni boshlashdan oldin barcha tegishli manfaatdor tomonlar bilan keng ko'lamli maslahat seminarlari o'tkazilishi ta'minlanadi, bu esa kelib tushayotgan takliflarni hisobga olish va zarur hollarda vaziyatning rivojlanishiga qarab loyiha ijrosi jarayoniga tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Manfaatdor tomonlarning turli ehtiyojlariga javob beradigan turlicha qilish usullari quyida ko'rsatilganidek taklif etiladi:

- **Ochiq/hamjamiyatdagi yig'ilishlar.** Boshqa loyiha tadbirlarini boshlashdan oldin va Ijtimoiy baholash va ushbu Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasini (MHR) e'lon qilish bilan bir vaqtda O'TG loyihani ishga tushirish bo'yicha respublika miqyosidagi yig'ilishni tashkil qiladi. Shu bilan birga, tuman va shahar filiallari hududiy bo'limlar ko'magida har bir tuman va shaharda mahalla yetakchilari, loyihaga aloqador shaxslar va boshqa manfaatdor ishtirokchilarga yo'naltirilgan yig'ilishlar o'tkazadi. Ushbu uchrashuvlar "ochiq eshiklar" shaklida bo'lib, unda O'TG/LBG loyiha bo'yicha asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi va ishtirokchilarni fikr almashish, savollar berish va har qanday xavotirlarni bildirishga taklif qiladi. Uzluksiz muloqotni ta'minlash maqsadida har chorakda har bir tuman va shaharda shunday uchrashuvlar tashkil etiladi. Barcha yig'ilishlar maksimal darajada qulaylik yaratish va keng ishtirokni ta'minlash uchun LTT va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qulay bo'lgan joy va vaqtlarda o'tkaziladi.
- **Axborot materiallari.** Yozma ma'lumotlar keng jamoatchilikka turli shakldagi kommunikatsiya materiallari – risolalar, varaqalar va plakatlar ko'rinishida taqdim etiladi. Iloji boricha kengroq qamrovni ta'minlash maqsadida ommaviy kommunikatsiyalar uchun maxsus to'plam ham bosma, ham elektron shaklda ishlab chiqiladi va tarqatiladi. O'TG/LBG, shuningdek, har chorakda kamida bir marta o'z veb-saytida muntazam yangilanishlarni joylashtirib, loyihaning amalga oshirilishi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni va natijalar to'g'risidagi hisobotlarni o'zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etadi. Bundan tashqari, veb-saytda loyiha bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi to'g'risida batafsil ma'lumot joylashtiriladi (keyingi kichik bo'limga qarang), shunda barcha manfaatdor tomonlar fikr-mulohazalarni taqdim etish yoki o'z xavotirlarini bildirish tartibi to'g'risida ko'rsatmalarni oson olishlari mumkin bo'ladi.
- **Ommaviy va ijtimoiy media orqali muloqot.** Loyihani amalga oshirishning butun davri davomida jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha yoki ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha mutaxassis O'TG/LBG xodimlari orasidan ham, tashqi maslahatchi sifatida ham jalb qilinadi, u manfaatdor tomonlar, jumladan, Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar (LTT) va mahalla yetakchilari bilan doimiy aloqani ta'minlaydi. Hududiy boshqarmalar tegishli ma'lumotlarni O'TGning ixtisoslashtirilgan veb-saytida, Facebook va Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek, loyiha amalga oshiriladigan hududlardagi axborot taxtalarida muntazam ravishda joylashtirish uchun mas'ul bo'ladi. Ijtimoiy tarmoq kanallaridan, ayniqsa Telegram mEISenjeridan loyiha ta'sir ko'rsatadigan hududlardagi turli yoshdagi jamoa a'zolari va aholi qatlamlari orasida foydalanishning yuqori darajasini hisobga olgan holda, ma'lumotlarni tarqatish uchun faol foydalaniladi.
- **Axborot berish shoxobchalari.** Har bir viloyat va tumanda axborot berish shoxobchalari tashkil etiladi, ular manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha tadbirlar, loyihaviy aralashuvlar va tayinlangan mas'ul shaxsning (Mas'ul koordinator) aloqa ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun qulay markazlarga aylanadi. Ushbu Mas'ul koordinatorlar o'z ofislarida, yoki boshqa qulay joylarda, loyihadan ta'sir ko'rgan shaxslar va manfaatdor tomonlar loyiha haqida erkin ma'lumot olishlari mumkin bo'lgan axborot berish shoxobchalarini tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadi. Barcha manfaatdor tomonlar loyiha faoliyat davrining barcha bosqichlarida xabardor bo'lishlari va ishtirok etishlari uchun axborot berish shoxobchalarida loyihaning asosiy ijtimoiy va ekologik jihatlarini ochib beruvchi risolalar va varaqalar joylashtiriladi.
- **Fuqarolar/LTT fikrini o'rganish.** Loyihani amalga oshirish davomida fuqarolarning tajribasini baholash va ularning fikr-mulohazalarini to'plash uchun ikki marta so'rov o'tkaziladi. Birinchi so'rov loyihani amalga oshirishning o'rtalarida o'tkazilib, ishlarning borishini aniqlash va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash uchun mo'ljallangan. Ikkinchi so'rov loyiha yakunlanishiga yaqin

o'tkaziladi, bu esa natijalarni va manfaatdor tomonlarning qanoatlanish darajasini har tomonlama baholash imkonini beradi.

- **Trening va seminarlar.** O'TG, LBG va zarur hollarda boshqa davlat va nodavlat xizmat ko'rsatuvchilar uchun turli ijtimoiy masalalar bo'yicha keng qamrovli o'quv seminarlarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Trening asosiy mavzularni, jumladan, inklyuzivlik va istisno qilish masalalari, geofazoviy ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq maxfiylik jihatlari, mehnat masalalari, shuningdek, gender asosidagi zo'ravonlik (GAZ) bilan bog'liq xavflarni aniqlash va kamaytirish va boshqa muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Bunday yondashuv loyihani amalga oshirish jarayonida ijtimoiy vazifalarni samarali hal qilish uchun manfaatdor tomonlarning xabardorligi va malakasini oshirishga qaratilgan.
- **Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi.** Jahon bankining Atrof-muhit va ijtimoiy standartlariga (EIS10) muvofiq loyihani amalga oshirish darajasida shikoyat va murojaatlarni hal qilish uchun shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus loyiha mexanizmi (SHKM) yaratiladi. Ushbu mexanizm shikoyatlarni ko'rib chiqish milliy tizimiga integratsiya qilinadi, bu esa uning barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiqligini ta'minlaydi. Shikoyat berish tartibi to'g'risida xabardor qilish va xabardorlikni oshirish uchun maxsus ma'lumotnomalar, broshyuralar va eslatmalar ishlab chiqiladi va mahalliy aholi o'rtasida tarqatiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tanlangan har bir joyda taklif va shikoyatlar uchun yopiq qutilar o'rnatiladi, bu esa murojaatlarni maxfiy tarzda yuborishni ta'minlaydi.

LBG shikoyatlarni hujjatlashtirish, kuzatish va ularni topshirishdan tortib qaror qabul qilish va arizachilarni xabardor qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni boshqarish uchun shikoyatlarning to'liq reyestrini yuritadi. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi, shu jumladan murojaat qilishning standart shakli to'g'risida qo'shimcha ma'lumot quyida VI bo'limda keltirilgan. Manfaatdor tomonlar shikoyatlarni anonim tarzda taqdim etishlari mumkin; ammo bunday hollarda ular ko'rib chiqish natijasidan qanoat hosil qilganini tasdiqlash imkoniyati bo'lmasligi mumkin.

Fikr-mulohazalar, savollar, sharhlar, mulohazalar va shikoyatlarni taqdim etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar O'TG veb-saytida, shuningdek, axborot plakatlari va varaqalarida joylashtiriladi. Ushbu materiallar, shuningdek, jarayonning barcha bosqichlarida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlagan holda, shikoyatlarni ko'rib chiqish tartib-qoidalari va muddatlari tavsifi bilan bayon etiladi.

14. Jahon bankining Fuqarolarni jalb qilish (FJ) tamoyillarini amaliy faoliyatga integratsiya qilish bo'yicha strategik mexanizmi doirasida Bank ushbu tamoyillarni barcha loyihalarida joriy etish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Ushbu majburiyatga muvofiq, barcha loyiha natijalarida fuqarolar ishtirokini monitoring qilish uchun, loyiha amalga oshirilishining barcha bosqichlarida kamida bitta foydalanuvchi (benefitsiarlardan) fikr-mulohaza indikatorini o'z ichiga olishi lozim va bu indikator loyiha rivojlanish maqsadlariga (LRM) erishish ko'rsatkichi yoki oraliq natijalar indikatorini sifatida qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, loyihalar uchinchi yil yakuniga kelib ushbu foydalanuvchi fikr-mulohaza indikatorlari bo'yicha Amalga oshirish holati va natijalar (AHN) to'g'risidagi hisobotlarni topshirishi yoki bunday hisobotlarni taqdim etishda sezilarli taraqqiyotni ko'rsatishi shart. Ushbu talablarni bajarish uchun ushbu loyihaga benefitsiarlarning quyidagi fikr-mulohaza indikatorlari kiritilgan: (2-jadval):

2-jadval: Natijalar mexanizmiga kiritilgan indikatorlar (tavsiya etiladi)

Indikator	Tavsifi	Manba
Ko'rsatilgan xizmat yoki treningdan mamnun bo'lgan benefitsiarlar soni	<p>Surat: Ko'rsatilgan xizmat yoki o'tkazilgan treningdan mamnunligini bildirgan benefitsiarlar soni</p> <p>Maxraj: Qoniqish darajasi so'rovda qatnashgan benefitsiarlarning umumiy soni</p>	So'rov
Belgilangan javob standarti doirasida ko'rib chiqilgan shikoyatlar	<p>Surat: Ijtimoiy nafaqalarni to'lash tizimi (WBPS) tomonidan kelib tushgan va tasdiqlangan protokolga muvofiq ko'rib chiqilgan shikoyatlarning umumiy soni.</p> <p>Maxraj: WBPS tomonidan kelib tushgan shikoyatlarning umumiy soni</p> <p>Javob berish muddatlari bo'yicha belgilangan standartlar Ijtimoiy to'lovlar kengashining (WBB) shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (SHKM) bo'yicha qo'llanmasida belgilanadi.</p>	SHKM tizimi

15. Ushbu ko'indikatorlar loyiha benefitsiarlarining fikr-mulohazalarini amalga oshirish jarayonida aks ettirish va natijalarni yaxshilashga hissa qo'shish uchun tizimli ravishda to'plash va monitoring qilish uchun mo'ljallangan. Bu indikatorlar bo'yicha muntazam hisobot berish loyihaning butun faoliyat davri davomida shaffoflik, hisobdorlik va moslashuvchan boshqaruvni ta'minlashga yordam beradi.

16. Eslatma: MHR "jonli" hujjat hisoblanadi va yangilab turiladi.


4.3. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasi

17. Loyihaning tadbirlari butun mamlakat hududini qamrab olishini hisobga olgan holda, loyiha boshqaruvi guruhi uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasini (MHR) ishlab chiqishda strategik yondashuvni qo'llash nihoyatda muhimdir. Manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik gorizonta va vertikal yo'nalishlarda qurilishi kerak, bu 2-rasmda ko'rsatilgan.

18. Gorizonta hamkorlik milliy manfaatdor shaxslarga qaratilgan bo'lib, metanning tartibga solinmagan chiqindilarini kamaytirish va davlat mulkidagi O'zbekiston gaz sohasi korxonalarida aktivlarni boshqarish salohiyatini oshirish kabi umumiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu darajada muloqot va hamkorlikni rag'batlantirish orqali loyiha o'zining strategik vazifalariga erishishda murosaga erishishi va qo'llab-quvvatlashni safarbar qilishi mumkin.

19. Bundan farqli o'laroq, hamkorlikning vertikal yo'nalishi kasdadli yondashuvni ko'zda tutadi, bu esa loyiha ta'sir ko'rsatgan guruhlar bilan turli ma'muriy darajalarda muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv axborot oqimi va salohiyatni shakllantirish bo'yicha qurilish tadbirlarini mintaqaviy va tuman bo'limlariga yetkazib, mahalliy darajada samarali amalga oshirishga ko'maklashadi. Mazkur kasdadli model orqali loyiha turli manfaatdor tomonlar guruhlarining o'ziga xos ehtiyojlari va tashvishlarini hisobga olgan holda o'z hamkorlik tadbirlarini moslashtirishi, har bir guruhning ovozi eshinishi va hisobga olinishi ta'minlanadi.

20. Natijada, MHR loyiha davrida – tayyorgarlik va rejalashtirishdan tortib, amalga oshirish va monitoringgacha – inklyuziv jarayon asosini tashkil etadi. Mazmunli maslahatlashuvlar va ishtirokni ustuvorlikka qoʻygan holda, MHR Jahon bankining Atrof-muhit va ijtimoiy mexanizmi, xususan, EIS10 da aks ettirilgan talablarga (AIM) mos keladi. Bunday yondashuv loyiha amalga oshirilishining barcha bosqichlarida manfaatdor tomonlarning nuqtai nazarlarini integratsiya qilish, ochiqlik, ishonchni mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan.



2-rasm: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik jarayonining sxematik koʻrinishi

21. Axborotni oshkor qilish va maslahatlashuv jarayonlari Loyiha taʼsir koʻrsatgan tomonlar, boshqa manfaatdor tomonlar hamda zaif guruhlar bilan quyidagi bosqichlarda davom ettiriladi: (i) loyihani tayyorlash, (ii) loyihani amalga oshirish va (iii) loyihani amalga oshirish bosqichlari. Axborotni oshkor qilish va maslahatlashuvni oʻtkazishda maqsadli auditoriyaga mos keluvchi keng turdagi usullar, jumladan, maqsadli guruhlar bilan maslahatlashuvlar, individual maslahatlashuvlar, xabardorlikni oshirish boʻyicha yigʻilishlar, turli oflayn va onlayn kanallardan (masalan, telefon qoʻngʻiroqlari va boshqalar) foydalangan holda intervyular, shuningdek, bosma OAV (gazetalar, ommaviy joylarda va davlat organlarida oʻrnatiladigan bannerlar va plakatlar) hamda elektron va ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter, WhatsApp-guruhlar va boshqalar) orqali kommunikatsiya vositalari qoʻllaniladi.
22. Loyihani tayyorlash va rejalashtirish jarayonida loyihani amalga oshirish hajmi va muddatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar loyihaga aloqador shaxslarga, shuningdek, boshqa manfaatdor tomonlarga maslahatlashuvlar doirasida yetkaziladi.
23. Loyiha har bir komponenti va bosqichi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ommaviy axborot vositalari uchun brifinglar, tematik nashrlar, axborot sEISiyalari, telekoʻrsatuvlar va radioeshittirishlar orqali keng

jamoatchilikka taqdim etiladi. Shuningdek, loyiha haqida vazirliklarning veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarida dolzarb ma'lumotlar muntazam joylashtirib boriladi.

24. Baholash bosqichida ushbu loyiha uchun ishlab chiqilgan AIM vositalari, shu jumladan kamida Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasi (EIMR) va MHR hukumat va Bank tomonidan ma'qullangandan so'ng O'TG veb-saytida va Jahon bankining tashqi veb-saytida e'lon qilinadi. Bundan tashqari, aytib o'tilgan hujjatlarning nusxalari jamoatchilik tanishib chiqishi uchun O'TGda saqlanadi. Tasdiqlangan EIMR va MRRdagi har qanday o'zgarishlar ayni muvofiqlashtirish, tasdiqlash va oshkor qilish tartib-qoidalariga rioya qilishi zarur.

3-jadval. Loyihani tayyorlash, amalga oshirish va undan foydalanish davrlarida ma'lumotlarni oshkor qilish rejasini o'z ichiga oladi.

Loyiha Bosqich	Taxminiy sana/Muddat ¹	Maslahat mavzusi / Xabar	Foydalaniladigan usul	Maqsadli manfaatdor tomonlar	Mas'uliyatlar
Loyihani tayyorlash va rejalashtirish bosqichi	AIM vositalarini tayyorlash va MHR loyihasini yangilash vaqtida	<ul style="list-style-type: none"> Loyihaning maqsadi, asoslanishi, kutilayotgan foyda va benefitsiarlar; Amalga oshirish mexanizmlari; Loyihani amalga oshirishning dastlabki jadvali va muddatlari, loyihaning mas'ul shaxslari bilan aloqalar; Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik va ijtimoiy xavflar va ta'sirlar; AIBMga muvofiq ularning oldini olish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar. Shikoyat qilish mexanizmining tavsifi; Aniqlangan manfaatdor tomonlar ro'yxati va ularni jalb qilish bo'yicha yondashuv tavsifi; Ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar, tadbirlar va rejalarni muhokama qilish. 	<ul style="list-style-type: none"> Hujjatlar loyihalarini taqdim etish va manfaatdor tomonlardan quyidagi vositalar bo'yicha fikr-mulohazalar olish: Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv mexanizmi (AIBM) Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasini (MHR), shu jumladan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (SHKM); Mehnat resurslarini boshqarish tartiblari (MBT) Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasini (EIMR) 	Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar (LTT), boshqa manfaatdor tomonlar (BMT), Zaif/ehtiyommand guruhlar (N/EG), respublika, viloyat va tuman darajadagi davlat organlari, quyi tashkilotlar, OAV, NNT kabi manfaatdor guruhlar, shuningdek, maqbul va Zaif guruhlar.	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari
		Asbob-uskunalar bilan ta'minlash/ulardan	<ul style="list-style-type: none"> AIBM, MHR, MBT va EIMRlarning yakuniy versiyalarini e'lon qilish 	LTT, BMT, N/EG, respublika, viloyat va tuman darajadagi	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi

¹ Loyihani amalga oshirish jarayonida sana, vaqt va joy o'zgartirilishi mumkin.

Loyiha Bosqich	Taxminiy sana/Muddat ¹	Maslahat mavzusi / Xabar	Foydalaniladigan usul	Maqsadli manfaatdor tomonlar	Mas'uliyatlar
		<p>foydalanishni ta'minlash, asosiy xulosalar.</p> <ul style="list-style-type: none"> Axborotni oshkor etish va jamoatchilikka e'lon qilingan hujjatlar bilan qanday tanishish haqida manfaatdor tomonlarga xabar berish. Loyiha hujjatlarini madaniy jihatdan maqbul va tushunarli shaklda oshkor qilish. 		davlat organlari, quyi tashkilotlar, OAV, NNT kabi manfaatdor guruhlar, shuningdek, maqbul va Zaif guruhlar.	guruhi va uning hududiy bo'limlari
	Loyiha ishga tushirilishidan oldin	Loyiha haqida ma'lumot, uning maqsadlari, amalga oshirish muddati, maqsadli auditoriyasi, tanlash mezonlari va loyihani bajarish rejalari.	Televidenie, radio, gazetalar, veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar platformalari, mobil telefonlarga matnli xabarlar, jamoalar yig'ilishlari, e'lonlar doskasi, plakat va bukletlar.	Respublika, viloyat va tuman darajadagi davlat organlari, quyi tashkilotlar, OAV, NNT kabi manfaatdor guruhlar, shuningdek, maqbul va Zaif guruhlar.	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari
	Loyiha ishga tushirilishidan oldin	Loyihaga oid ma'lumot, jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy soha talablariga oid axborot	Elektron nusxalar loyiha veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi, bosma nusxalar O'TG/Jahon bankida mavjud Bildirishnomalar barcha manfaatdor tomonlarga O'TG saytlariga havola bilan yuboriladi	Respublika, viloyat va tuman darajadagi davlat organlari, quyi tashkilotlar, pudratchilar, OAV, NNT kabi manfaatdor guruhlar, shuningdek, maqbul va Zaif guruhlar.	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari
	Loyiha ishga tushirilishidan oldin	Shikoyatlar va SHKM jarayonlari, jumladan GAZ bilan bog'liq hodisalar.	Hamjamiyatdagi yig'ilishlar, e'lonlar doskasi, plakat va bukletlar.	Respublika, viloyat va tuman darajadagi davlat organlari, quyi tashkilotlar,	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari

Loyiha Bosqich	Taxminiy sana/Muddat ¹	Maslahat mavzusi / Xabar	Foydalaniladigan usul	Maqsadli manfaatdor tomonlar	Mas'uliyatlar
			Jahon banki Apellyatsiya kengashi bayonnomalari asosidagi bildirishnomalar	puqratchilar, OAV, NNT kabi manfaatdor guruhlar, shuningdek, tegishli va Zaif guruhlar.	
Loyihani amalga oshirish bosqichi	Amalga oshirish jarayonida, doimiy ravishda	Tanlov mezonlari, arizalarni topshirish tartiblari, benefisiarlarning ehtiyojlarini baholash, tirikchilikni ta'minlash bo'yicha yordam takliflari hamda bank hisobraqamlarini ochish bo'yicha takliflar, tasdiqlash va monitoring jarayonlari	Rasmiy byulleten, Televidenie, radio, gazetalar, veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar platformalari, mobil telefonlarga matnli xabarlar, jamoalar yig'ilishlari, e'lonlar doskasi, plakat va bukletlar	Maqbul va Zaif guruhlar, loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG
	Haftalik, oylik, choraklik va yillik hisobotlar	Loyiha ijrosi bo'yicha LBG va boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar.	Veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, rasmiy uchrashuvlar, hamjamiyat yig'ilishlari, viloyat va tuman darajasida axborot doskalari.	Respublika, viloyat va tuman darajadagi davlat organlari, quyi tashkilotlar, OAV, NNT kabi manfaatdor guruhlar, shuningdek, maqbul va Zaif guruhlar.	"Uztransgaz" AJ (UTG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG
	Choraklik	Maslahat yig'ilishlari bo'yicha umumiy yakuniy natijalar	Veb-saytlar, e'lon doskalari, hamjamiyat yig'ilishlari.	Maqbul va Zaif guruhlar, loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari	"Uztransgaz" AJ (UTG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG
	Doimiy ravishda	Axborot berish shoxobchalari haqida axborot, SHKM va shikoyatlar tartibi bo'yicha tushuntirishlar, gender asosidagi	Ishonch telefonlari, Axborot berish shoxobchalari, SMS xizmati, boshqarma kotibiyati, veb-saytlar,	Maqbul va Zaif guruhlar, loyihani amalga oshirishda	"O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG

Loyiha Bosqich	Taxminiy sana/Muddat ¹	Maslahat mavzusi / Xabar	Foydalaniladigan usul	Maqsadli manfaatdor tomonlar	Mas'uliyatlar
		zo'ravonlik (GAZ) bilan bog'liq holatlar bo'yicha hisobot, GAZga oid ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish imkoniyati	ijtimoiy tarmoqlar, hamjamiyat yig'ilishlari, e'lon doskalari.	ishtirok etuvchi davlat organlari	
	Oylik/ Choraklik	Shikoyatlarni ko'rib chiqish holati/Shikoyatlarni ko'rib chiqishdagi oldinga siljishlar	Arizachining fikr-mulohazasi – qo'lda yoki SMS-xizmat orqali	Maqbul va Zaif guruhlar, loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari	“O'ZTRANSGAZ” AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG
	Choraklik	Xabardorlikni oshirish/salohiyatni oshirish bo'yicha o'quv dasturlari (rejalashtirish va o'tkazilgan)	Veb-sayt, ishning borishi bo'yicha hisobotlar, uchrashuvlar, elektron pochta.	Maqbul va Zaif guruhlar, loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari	“O'ZTRANSGAZ” AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG
	Oylik/ Choraklik	Loyihaning muhim natijalari	Veb-sayt, ishning borishi bo'yicha hisobotlar, uchrashuvlar, elektron pochta.	Maqbul va Zaif guruhlar, loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari	“O'ZTRANSGAZ” AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG
	Loyihaning faoliyati davomida doimiy ravishda	N/EGlar bilan hamkorlik Loyihani maqsadli manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda amalga oshirish	Ochiq uchrashuvlar. Loyiha hujjatlarini madaniy jihatdan maqbul va tushunarli shaklda oshkor qilish.	N/EGlar, shu jumladan ayollar, nogironlar	“O'ZTRANSGAZ” AJ (O'TG) ishchi guruhi va uning hududiy bo'limlari, LBG

25. Mazkur MHR (o'zbek va ingliz tillarida), Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasi (EIMR), Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv mexanizmi (AIBM) va Mehnat resurslarini boshqarish tartiblari (MBT) "O'ZTRANSGAZ" AJ veb-saytida (<https://O'TG.uz/uz/>) va Jahon banki tizimida ommaga taqdim qilinadi. Loyiha hujjatlari, yangilanishlari va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi haqida batafsil ma'lumotlar O'TG veb-saytida ham joylashtiriladi. Bosma materiallar (qo'llanmalar, risolalar, plakatlar va boshqalar) aniqlangan ehtiyojlarga qarab tayyorlanadi va qo'llaniladi Loyihaning veb-saytida ma'lumotlarni oshkor qilish uchun o'zbek va ingliz tillaridan foydalaniladi.
26. Turli manfaatdor tomonlarning loyiha faoliyatida ishtirok etishi va undan foyda olishi uchun tadbirlarning inklyuzivligi va madaniy sezgirligini ta'minlash nihoyatda muhimdir. Zarur holatlarda matnli ma'lumot o'rniga mahalliy til, og'zaki muloqot yoki vizual materiallardan foydalaniladi. Shuningdek, shuni ta'kidlash muhimki, har doim ham shaxsiy uchrashuvlarni tashkil qilish imkoni bo'lmaganligi sababli, asosiy manfaatdor tomonlarni qamrab olish uchun boshqa kommunikatsiya vositalaridan, jumladan ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniladi. 3-jadvalda quyida ma'lumotlarni oshkor qilish jadvali keltirilgan.

4-jadval: Loyiha hujjatlarini oshkor qilish jadvali

Loyiha bosqichi / muddatlari	Maqsadli manfaatdor tomonlar	Oshkor qilinadigan ma'lumotlar	Usullar
Baholashdan so'ng	Barcha manfaatdor tomonlar va keng jamoatchilik	MHR, EIMR, AIBM, MBT	Jahon banki va O'TG veb-saytlari
Kuchga kirgandan boshlab olti oy ichida	Barcha manfaatdor tomonlar	Yangilangan MHR, MBT	Jahon banki va UTG veb-saytlari
Har olti oyda	Hamkor ijrochilar, loyiha mahalliy jamoalari	Loyiha qamrovi, amalga oshirish bo'yicha hisobotlar	O'TG veb-sayti, virtual maslahatlashuvlar, jamoat yig'ilishlari
Asosiy tadbirlar boshlanishidan oldin	Muayyan tadbirlar uchun asosiy manfaatdor tomonlar, shu jumladan pudratchilar va maslahatchilar	AIBM	Jahon banki va O'TG veb-saytlari
Yillik	Keng jamoatchilik	Loyihaning barcha yangilangan hujjatlari, amalga oshirish va o'rganilgan saboqlar bo'yicha yillik hisobotlar	Jahon banki va O'TG veb-saytlari

4.4. Manfaatdor tomonlarga hisobot berish

27. Manfaatdor tomonlar loyiha amalga oshirilishi jarayonida xabardor qilinadi, shu jumladan loyiha ekologik va ijtimoiy natijalari, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasining bajarilishi va shikoyatlar mexanizmi ishlashi, shuningdek, loyiha amalga oshirilishining umumiy borishi haqida ma'lumot beriladi.

5. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK TADBIRLARINI AMALGA OSHIRISH UCHUN RESURLAR VA MAS'ULIYATLAR

5.1. Resurslar

28. O'TG manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'ladi. 5-jadval. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik tadbirlariga sarflanishi mumkin bo'lgan taxminiy xarajatlar moddasini ko'rsatadi. Bu jadval loyiha byudjeti aniqlanganidan so'ng yangilanadi. O'TG bu xarajatlarning umumiy loyiha byudjetiga kiritilishiga kafolat beradi.

5-jadval: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik uchun taxminiy byudjet

Byudjet kategoriyasi	Umumiy xarajatlar (AQSH dollari)
1. Ekspertlar	
Kommunikatsiya bo'yicha maslahatchi / ijtimoiy kafolatlar bo'yicha xodimlar	30 000
2. Tadbirlar	
Jamoatchilik maslahatlashuvlarini tashkil qilish	5 000
3. Kommunikatsiya bo'yicha kampaniyalar	
3a. Axborot materiallari (varaqlar, plakatlar, PR-to'plamlar, jumladan dizayn)	3 000
4. Treninglar	
LBG va pudratchilar xodimlari uchun ijtimoiy/ekologik masalalar va gender asosidagi zo'raonlik (GAZ) bo'yicha o'quv-treningi	10 000
5. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (SHKM)	
6a. LBG va hududiy boshqarmalar uchun SHKM bo'yicha treninglar	5 000
6b. Qishloqlardagi taklif qutilari va SKM bo'yicha axborot materiallari	2 000
	55 000

Izoh: *Ish haqi xarajatlari taxminiy hisoblanadi.

5.2. Boshqaruv funksiyalari va majburiyatlar

29. O'zbekiston Respublikasi hukumati "O'ZTRANSQAZ" AJ (O'TG) tarkibida Loyiha boshqaruvi guruhini (LBG) tashkil etish to'g'risida farmoyish chiqargan. "O'ZTRANSQAZ", AJ GFMT granti oluvchisi va benefisiari sifatida, loyiha ijrochisi sifatida faoliyat yuritadi. O'TG loyiha ijrochi agentlik bo'lib, uni amalga oshirish uchun umumiy javobgarlikka ega bo'lib, bu moliyaviy nazorat, monitoring va baholash, shuningdek ekologik va ijtimoiy kafolatlarni o'z ichiga oladi.
30. O'TG Atrof-muhit va ijtimoiy mexanizmni (AIM) tayyorlash va amalga oshirish, shuningdek, Investitsion loyihani moliyalashtirish (ILM) orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun Jahon bankining (JB) talablariga rioya etishi uchun javobgardir. Ekologik va ijtimoiy vositalar, jumladan Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasi (EIMR), Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv mexanizmi (AIBM), Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasi (MHR), Mehnat resurslarini boshqarish tartiblari (MBT) hamda Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (SHKM) tayyorlash, joriy etish va nazorat qilish uning majburiyatlariga kiradi. O'TG Loyiha boshqaruvi guruhi (LBG) EIMRga muvofiq ekologik va ijtimoiy tadbirlar bajarilishi to'g'risida har yarim yilda bir marta hisobot tayyorlaydi va belgilangan muddatlarda ularni Jahon bankiga taqdim etadi. Mehnat munosabatlarini boshqarish bilan bog'liq barcha masalalar loyihani amalga oshirish bo'yicha hisobotlarda hujjatlashtiriladi, monitoring qilinadi va LBG ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi tomonidan loyiha AIBMga muvofiq boshqariladi.
31. O'TG Loyiha boshqaruvi guruhi (LBG) EIMRga muvofiq ekologik va ijtimoiy tadbirlar bajarilishi to'g'risida har yarim yilda bir marta hisobot tayyorlaydi va belgilangan muddatlarda ularni Jahon bankiga taqdim etadi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik bo'yicha barcha ishlar loyihani amalga

oshirish bo'yicha hisobotlarda hujjatlashtiriladi, monitoring qilinadi va LBG ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassis tomonidan loyiha AIBMga muvofiq boshqariladi.

6. SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI

32. Geofazovviy ma'lumotlarni yig'ish shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq, jumladan, ma'lumotlarni roziliksiz yig'ish, uchinchi shaxslarga uzatish va ma'lumotlarning sizib chiqishi va boshqa shu kabi xavotirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmining (SHKM) asosiy maqsadi – shikoyat va da'volarni o'z vaqtida, samarali va natijali tarzda hal qilish hamda jarayonga jalb qilingan barcha tomonlarni qanoatlantirishdir.
33. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RB-445-son Qonuniga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (arizalar, takliflar, shikoyatlar, anonim murojaatlar) belgilangan qonun asosida muddatida va to'liq ko'rib chiqilishi, murojaatlarga yagona talablar bajarilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishi, murojaatlarni ko'rib chiqishda byurokratizm va rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi hamda davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan ochiqlik tamoyillari amal qilishi ta'minlanadi. Har qanday davlat tashkiloti murojaatlarni qabul qilishda aholi bilan bevosita aloqani yo'lga qo'yishi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi, murojaatlarni ko'rib chiqish tizimi samarali ishlashiga ko'maklashishi, murojaatlarni ko'rib chiqishda konstitutsiyaviy huquqlarning amalga oshirilishini ta'minlashi, murojaatlarni ko'rib chiqishni tizimli monitoring va nazoratga olishni tashkil etishi, murojaatlarni ro'yxatga olish, umumlashtirish, tizimlashtirish, monitoring va nazorat tartibini joriy etishi uchun elektron axborot tizimini yaratishi, shuningdek, murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishi lozim.
34. Davlat organlari, tashkilotlari va ularning mas'ul mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish, murojaatlarni to'liq, har tomonlama va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi uchun yechim izlash, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklariga hurmat bilan yondashish, shuningdek, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish majburiyatiga ega. Murojaatlarni ko'rib chiqishda fuqarolarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati, maxfiy ma'lumotlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini buzishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar, davlat siriga oid yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa ma'lumotlar so'ralmaydi yoki to'planmaydi. Davlat organlari, tashkilotlari va ularning mas'ul mansabdor shaxslari jismoniy yoki yuridik shaxslardan, boshqa mas'ul davlat organi vakillaridan, tashkilotlardan yoki boshqa shaxslardan so'ralayotgan ma'lumotlar davlat siri yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa axborotni o'z ichiga olmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasa hamda jamoat va davlat manfaatlariga zid bo'lmasa, qo'shimcha axborotni fosh qilmaydi. Agar so'ralayotgan ma'lumot davlat siri yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa axborotni o'z ichiga olmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasa, jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo'lmasa, davlat organlari, tashkilotlar va mas'ul mansabdor shaxslar bunday axborotni bir kun davomida taqdim etishi shart. 5-ilova.

6.1. SHKM tavsifi

35. Loyiha boshqaruvi guruhining (LBG) SHKM loyiha amalga oshirilish jarayonida nizolarni hal etish uchun kanal taqdim etadi. Biroq SHKM mavjud yuridik kanallarni, jumladan, sudlar, tribunal va boshqa shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini to'ldiradi, lekin ularning o'rnini bosmaydi.
36. SHKM loyiha haqida va uning maqsadlari to'g'risida jamiyatni xabardor qilish, firibgarlik va korrupsiyaning oldini olish, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va shaxsiy maxfiylikka oid xavflarni kamaytirish, shuningdek, loyihaning amalga oshirilishi jarayonida Loyiha boshqaruvi guruhiga amaliy

yechim va fikr-mulohazalarni taqdim etish orqali loyihaning samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.

37. SHKM loyihaning **BARCHA** sohalarida qo'llaniladi.

38. SHKM uchun mo'ljallangan auditoriya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Moliyalashtiruvchi agentliklar – Jahon banking Tashkentdagi vakolatxonasi va Shikoyatlarni ko'rib chiqish xizmati (SHKX)
- Loyiha bevosita va bilvosita xodimlari
- Pudratchilar va subpudratchilar
- Loyiha benefitsiarlari va ular bilan bog'liq muassasalar
- Keng jamoatchilik va loyiha ta'sir ko'rsatadigan hamjamiyatlar

39. Kelgusida SHKM yuqorida ko'rsatilgan darajalarda nizolar va shikoyatlarni hal qilish uchun yetarlicha samarali bo'lishi hamda boshqa yuridik kanallar, masalan, sudlar, tribunal va boshqa shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlariga vakolatni o'tkazishni minimallashtirish yoki oldini olishga xizmat qilishi ko'zda tutilmoqda.

6.2. SHKM tuzilmasi

40. SHKMda gaz sohasi kundalik faoliyati davomida yuzaga keladigan shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun milliy SHKM tizimi mavjud bo'lsa ham, ushbu loyiha doirasidagi bunday mexanizm aynan loyiha bilan **BOG'LIQ** shikoyatlar va e'tirozlarni ko'rib chiqadi. Bu SHKM yagona va markazlashtirilgan bo'lib, unda ta'sir ko'rsatilgan manfaatdor tomonlar o'z e'tirozlarini bildirishlari va imkon qadar tezroq javob olishlari mumkin. Jinsiy ekspluatatsiya va tazyiqlar, shuningdek shilqimliklar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun alohida SHKM tashkil etiladi.

41. Maslahatlar davomida manfaatdor tomonlar mavjud SHKM haqida, shuningdek, bu mexanizmdan foydalanganlik uchun ehtimoliy oqibatlardan himoya qilish bo'yicha ko'rilgan choralar haqida xabardor qilinadi.

6.3. Shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi.

42. Quyidagi 6-jadvalda SHKM ishlash tartibi keltirilgan.

6-jadval: Shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi

Bosqich	Jarayon tavsifi	Muddatlar	Javobgarlik
SHKMning ishlash tuzilmasi	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi tuzilmasi: 1. LBG, pudratchining ishxonasi, mahalla qo'mitasining mahalliy bo'limi va tuman hokimliklari; 2. LBGning Toshkentdagi kotibiyati; 3. Xo'jalik sudi.	Doimiy ravishda	LBGning ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi / SHKM uchun mas'ul xodim
Shikoyatlarni qabul qilish	Shikoyatlar quyidagi kanallar orqali berilishi mumkin: • Kunu tun ishlochi yordam telefoni: +998 (71) 202-10-12 • Ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar: https://t.me/uztg_uz https://www.facebook.com/uztransgaz.uz/ https://www.youtube.com/channel/UCNFs0WsXQUPLdm2SmnKCvw?view_as=subscriber https://my.gov.uz	Doimiy ravishda	LBGning ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi / SHKM uchun mas'ul xodim Tashkiliy nazorat va murojaatlar bo'limi

Bosqich	Jarayon tavsifi	Muddatlar	Javobgarlik
	<p>https://pm.gov.uz/uz#/ https://murojaat.gov.uz/oz?organization_id=7143</p> <ul style="list-style-type: none"> E-mail: info@utg.uz Shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mas'ullarga xat: Yangi Toshkent, Yuqorichirchiq tumani. <p>Shikoyat yuqorida ko'rsatilgan istalgan kanal orqali yuborilishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> Mehmonlar shikoyatni obyektidagi shikoyatlar jurnaliga yozib qoldirishlari yoki takliflar qutisiga tashlab ketishlari mumkin: Loyihani amalga oshirish hududlaridagi O'TG ofislarida. 		
Saralash, qayta ishlash	<p>Qabul qilingan har qanday shikoyat LBG ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi / SHKM uchun mas'ul xodimga yuboriladi, u manfaatdor tomonlardan shikoyatlarni qabul qilib, ro'yxatga oladi; Shikoyat reyestriga kiritiladi yoki yozma murojaat loyiha koordinatori manziliga elektron pochta orqali yoki qog'oz shaklida yetkaziladi hamda quyidagi shikoyat turlariga ajratiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> Xizmat ko'rsatishning bajarilishi yoki sifatiga oid shikoyatlar Yerga oid qonunbuzarlik yoki yerni egallab olishga doir shikoyatlar Shaxslarga tan jarohati yetkazilishi Ish haqi va to'lovlar bilan bog'liq shikoyatlar Jinsiy shilqimlik Geofazoviy ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'liq maxfiylik masalalari 	Shikoyat kelib tushgandan so'ng	Shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mahalliy mas'ullar
Tasdiqlash va keyingi bosqichdagi ishlar	Shikoyat qabul qilinganligi haqida arizachiga LBG menejeri xabar beradi	Qabul qilingandan so'ng 2 kun ichida	Shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mahalliy mas'ullar
Tasdiqlash, tekshirish, chora ko'rish	Shikoyatni tekshirishni LBGning mas'ul shaxsi amalga oshiradi. Shikoyat bo'yicha tavsiya etilgan yechim ishlab chiqilib, LBG menejeri tomonidan arizachiga yetkaziladi	10 ish kuni ichida	Shikoyatlarni ko'rib chiqish komissiyasi, tarkibiga LBG menejeri va ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi / SHKM bo'yicha mas'ul xodimlar kiradi
Monitoring va baholash	Shikoyatlar bo'yicha ma'lumotlar jurnal va elektron ma'lumotlar bazasida qayd etiladi hamda har chorakda LBG menejeriga taqdim etiladi	Choraklik	LBGning ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi / SHKM uchun mas'ul xodim
Fikr-mulohaza berish	Shikoyatchilardan shikoyatni hal qilishdan qanoatlanganliklari bo'yicha fikr-mulohazalari shikoyatlar hal qilingandan so'ng har hafta yig'iladi	Har hafta	LBGning ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi / SHKM uchun mas'ul xodim

Bosqich	Jarayon tavsifi	Muddatlar	Javobgarlik
O'quv-trening	LBG xodimlari/konsultantlari, pudratchilar va nazorat bo'yicha maslahatchilarning u yoki bu o'quv-treningga bo'lgan ehtiyojlari aniqlanadi va umumlashtiriladi, zarur bo'lsa, o'qitish rejasi ishlab chiqiladi	Yarim yillik/yillik	LBG ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi
Zarur hollarda, shikoyat hal qilinganidan so'ng kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish	Shikoyatlar, agar LBG boshqaruviga bevosita tashvish yetkazilgan va boshqaruvga javob berish imkoni berilgan bo'lsa, istalgan vaqtda LBGga topshirilishi mumkin.	Doimiy ravishda	Shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha qo'mita, mas'ul ijrochi tarkibida

43. SHKM ariza beruvchi shikoyat bo'yicha taklif etilgan qarordan qoniqmasa, apellyatsiya jarayonini nazarda tutadi. Agar shikoyatni hal qilishda barcha imkoniyatlar ishga solingan va ariza beruvchi hanuz javobdan qanoatlanmagan bo'lsa, unga sudga murojaat qilish huquqi borligi haqida xabar berish zarur.
44. Zarur hollarda, loyiha nozik mavzudagi va maxfiy shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun boshqa choralarni ham ko'zda tutadi, jumladan, jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlik (JEZ), shuningdek jinsiy tazyiqqa (JT) oid shikoyatlar, Jahon bankining JEZ/JT bo'yicha eng yaxshi amaliyot bo'yicha yo'riqnomasi asosida. JEZ/JT bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi tarkibida kamida bitta ayol kishi ishtirok etadi. JEZ/JT muammolari bo'yicha ma'lumotni qabul qilish va shikoyatlarni ro'yxatga olishda quyidagi bosqichlar qat'iy bajariladi:
- SHKMda jabrlanuvchi haqida hech qanday identifikatsiyalovchi ma'lumot saqlanmaydi.
 - SHKMda JEZ/JT bo'yicha shikoyatdan tashqari quyidagidan boshqa ma'lumot so'ramasligi yoki qayd etmasligi zarur:
 - Shikoyatning mohiyati (ariza beruvchi o'z so'zlari bilan aytganidek, yo'naltiruvchi savollarsiz);
 - Agar jabrlanuvchiga ma'lum bo'lsa, jinoyatchi loyiha bilan bog'liq bo'lsa; iloji bo'lsa, jabrlanuvchining yoshi va jinsi; shuningdek, imkon qadar, jabrlanuvchi tegishli xizmatlarga yuborilganligi haqida ma'lumot.
 - JEZ/JT bo'yicha xizmat ko'rsatuvchilar murojaatlarga javob berish uchun o'z holatlarni boshqarish tizimidan foydalanadi.
 - Yuqorida ko'rsatilgan xizmatlar jabrlanuvchi rasmiy shikoyat qilishni xohlamasa yoki shikoyat loyiha bilan bog'liq bo'lmasa ham – ish yopilgunga qadar taqdim etiladi.
45. Bundan tashqari, mehnatga oid shikoyatlar berish mexanizmi (SHKM) joriy etiladi, bu xodimlarga o'z mehnat sharoitlari bilan bog'liq muammolar va shikoyatlar to'g'risida xabar berish imkonini beradi hamda ushbu masalalarning tezkor va adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.
46. Mehnatga oid SHKM loyihaning barcha xodimlari uchun ochiq bo'ladi va shikoyat qilish uchun bir nechta kanallarni, shu jumladan anonim murojaat qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Mehnatga oid SHKM mehnat resurslarini boshqarish tartib-qoidalarida batafsil bayon etilgan.
47. Jahon banki va O'TG Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha o'z fikrini bildirgan loyiha ishtirokchilariga nisbatan o'h olish va jazo asosidagi javob choralari yo'l qo'ymaydi.

7. MONITORING VA HISOBOT BERISH

7.1. MHRni amalga oshirish bo'yicha monitoring va hisobot berish tartibining qisqacha tavsifi

48. Monitoring hisobotlari, MHR hamda boshqa ekologik va ijtimoiy tadbirlar va talablarning bajarilishini aks ettiruvchi hisobotlar loyiha doirasida jalb qilingan atrof-muhit va ijtimoiy siyosat bo'yicha mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi va keyinchalik O'TGga taqdim etiladi. Ushbu hisobotlarda shikoyatlarni boshqarishga oid bo'lim ham bo'ladi.
49. Loyiha amalga oshirilishi davomida atrof-muhit va ijtimoiy siyosat masalalarini boshqarish bo'yicha yarim yillik va yillik hisobotlar tayyorlanadi; ushbu hisobotlarda manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to'g'risida yangilangan ma'lumotlar hamda 4-jadvalda keltirilgan indikatorlar o'z aksini topadi. Yarim yillik hisobotlardan yillik hisobotlarni tayyorlashda foydalaniladi va ular LBG rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi. Mazkur hisobotlar Jahon bankiga taqdim etiladi.

4-jadval: Loyihani amalga oshirish to'g'risidagi hisobotlarda hujjatlashtirilishi lozim bo'lgan manfaatdor bilan hamkorlik indikatorlari

Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar bilan hamkorlik	Loyiha ta'sir ko'rsatgan tomonlar bilan tegishli vaziyatlarda o'tkaziladigan uchrashuvlar soni va joylashuvi.
	Yuqorida ko'rsatilgan har bir uchrashuvda ishtirok etgan erkaklar va ayollar soni.
	Majlis bayonnomalari, unda ishtirokchilarning fikr va mulohazalari, ular bilan kelishilgan harakatlar va ushbu harakatlarning bajarilish holati aks etgan bo'lib, u hisobotlarga ilova qilinadi.
Boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik	Boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikdagi tadbirlar soni va xarakteri toifalari kesimida (davlat organlari, xususiy sektor, BMT agentliklari, jamoatchilik asosidagi tashkilotlar) taqsimlanadi.
	Manfaatdor tomonlar tomonidan ko'tarilgan masalalar, kelishilgan harakatlar va ularning bajarilish holati.
	Majlis bayonnomalari yarim yillik va yillik hisobotlarga ilova qilinadi.
Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi	Loyiha ta'sir ko'rsatgan shaxslar, xodimlar, tashqi manfaatdor tomonlar va boshqalardan olingan shikoyatlar soni.
	Shikoyatlarning: (i) kelib tushgan, (ii) ko'rib chiqilgan, (iii) yopilgan va (iv) ariza beruvchilarni qanoatlantirgan javoblar soni – hisobot davrida, shikoyat turi, arizachi jinsi, yoshi va joylashuvi kesimida taqsimlanadi.
	Shikoyatlarni ko'rib chiqishning o'rtacha davomiyligi, arizachilarning jinsi va shikoyat toifalari kesimida taqsimlanadi.

7.2. Manfaatdor tomonlar guruhlariga qayta hisobot berish

50. MHR loyiha amalga oshirilishi davomida zaruratga ko'ra vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi. Jamoatchilik shikoyatlari, murojaatlari va ular bilan bog'liq hodisalar, shuningdek, tegishli tuzatish/profilaktik chora-tadbirlarning bajarilishi holati bo'yicha yarim yillik va yillik yig'ma hamda ichki hisobotlar mas'ul xodimlar tomonidan yig'ilib, loyiha rahbariyatiga taqdim etiladi. Yarim yillik va yillik yig'ma hisobotlar loyihaning shikoyatlar va ma'lumot so'rovlarining soni va xususiyatini, shuningdek, ularga tez va samarali javob bera olish salohiyatini baholash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Loyiha tomonidan yil davomida jamoatchilik bilan hamkorlik qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar manfaatdor tomonlarga turli usullar bilan yetkazilishi mumkin. Xususan imkoniyat darajasida, shaxsiy va virtual uchrashuvlar orqali; vaziyatdan kelib chiqib maslahatlashuv tadbirlari tashkil etish orqali; loyiha veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda yangilanishlar joylashtirish orqali; hamda zarur hollarda elektron va bosma OAV orqali

va boshqa usullar qo'llaniladi. shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali olingan fikr-mulohazalarga imkon qadar yozma va og'zaki shaklda javob beriladi. Bundan tashqari, telefon raqamlari mavjud bo'lgan manfaatdor tomonlarga javoblar telefon qo'ng'iroqlari orqali ham yetkazilishi mumkin.

ILOVALAR

1-ilova. Jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar xulosasi

Izohlar / Savol	Fikr-mulohaza / Javob
Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakili: Vazirlik grant taqdim etish to'g'risidagi bitimni imzolashning kutilayotgan muddatlari bilan qiziqib, O'zbekiston hukumati Braziliyada bo'lib o'tadigan COP30 – BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha sammitida ishtirok etishni rejalashtirayotgani va ushbu tadbir boshlanishidan oldin bitimni imzolashni yakunlash juda muhimligini ta'kidladi. Ushbu masala Jahon banki jamoasi bilan uchrashuvda vazirlik vakillari tomonidan ko'tarildi.	Hozirda loyiha baholashga tayyorgarlik ko'rish bosqichida. Atrof-muhit va ijtimoiy mexanizm (AIM) bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish oktabr oyining oxirigacha yakunlanishi kutilmoqda, shundan so'ng baholash jarayoni noyabr oyida boshlanishi taxmin qilinmoqda. Loyihani tayyorlash va yakunlashning keyingi bosqichlari Jahon bankining ichki tartib-qoidalari va tasdiqlash muddatlariga muvofiq amalga oshiriladi.
Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining vakili: Qo'mita ehtimoliy xavflarni har tomonlama aniqlash va kamaytirishni ta'minlash uchun loyihalash bosqichida HAZOP (xavf-xatarlar va ishlashga layoqatlilik) tahlili hamda sanoat xavfsizligining boshqa tegishli baholashlarini o'tkazish muhimligini ta'kidladi. Shuningdek, salohiyatni oshirish tadbirlari sanoat xavfsizligi sohasidagi institutsional bilim va amaliyotlarni mustahkamlash uchun loyihaning ajralmas qismiga aylanishi kerakligi aytib o'tildi.	Loyihani "O'ZTRANSGAZ" AJning mavjud obyektlarida amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, u yerlarda barcha tegishli ichki tartib-qoidalar, sanoat xavfsizligi talablari va me'yoriy standartlarga qat'iy rioya qilinadi. Bundan tashqari, xodimlarning malakasini oshirish, xavfsizlik talablari va tartibga solish me'yorlariga to'liq rioya etilishini ta'minlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.
O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi vakili: Vazirlik loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan ijobiy ekologik samaralarni qayd etib, milliy qonunchilikka muvofiq, barcha loyihalar amalga oshirilishidan oldin majburiy ekologik ekspertizadan o'tkazilishi kerakligiga urg'u berdi. Shuningdek, atrof-muhitga ta'sirni baholash (ATB) nafaqat respublika darajasida, balki hududiy darajada, ya'ni loyiha tadbirlari amalga oshiriladigan hududlarda ham o'tkazilishi tavsiya etildi.	Loyihaning atrof-muhitga salbiy ta'siri minimal darajada bo'lishi kutilmoqda, chunki u asosan mavjud gaz uzatish infratuzilmasida kichik ta'mirlash ishlari bilan cheklanadi. Shunga qaramay, barcha zarur ekologik baholashlar va tartib-taomillar milliy qonunchilik va Jahon bankining AIM talablariga to'liq muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Loyiha jamoasi amalga oshirishning barcha bosqichlarida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi respublika va hududiy organlarning ishtirokini ta'minlaydi.

**2-ilova: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik bo'yicha o'tkazilgan uchrashuvdan fotosuratlar
(Yangi Toshkent, Yuqori Chirchiq, Toshkent viloyati, 2025-yil 3-oktabr)**



4-ilova: "O'ZTRANSGAZ" AJ tomonidan manfaatdor tomonlarga yuborilgan taklifnoma



100047, Toshkent sh., Yashnobod t.
Shahrisabz k., 85a-uy.
Tel.: (+99871) 202-00-60
www.utg.uz, info@utg.uz
uztransgaz@exat.uz

№ 04-12/3-225/4936

2025 yil "30" 09

O'zbekiston Respublikasi moliya
va iqtisodiyot vazirligiga
O'zbekiston Respublikasi
energetika vazirligiga
O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish va
bandlik vazirligiga
O'zbekiston Respublikasi
Ekologiya, atrof-muhitni
muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirligiga
Sanoat, radiasiya va yadro
xavfsizligi qo'mitasiga,
O'zbekiston mahallalari
uyushmasiga
Oila va xotin-qizlar qo'mitasiga
Yoshlar ishlari agentligiga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'ztransgaz" AJ tomonidan "Magistral gaz uzatish tizimida energiya samaradorligini oshirish va gaz yo'qotilishini kamaytirish" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyiha Jahon bankining texnik ko'magi va grant mablag'lari asosida 2023-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqich (2023–2024 yillar): Pilot loyiha doirasida kompressor stansiyalarida dastlabki tekshiruvlar o'tkazilib, metan chiqish holatlari aniqlandi va maqsadli ta'mir ishlari amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich (A va B, 2024–2025 yillar): Jahon banki grant mablag‘lari hisobidan “A” bosqichda kompressor stansiyalari va magistral quvurlarda texnik inspeksiya ishlari amalga oshirildi. Joriy yilning III choragidan boshlanadigan “B” bosqichi doirasida barcha qolgan kompressor stansiyalari va muammoli magistral quvurlarda inspeksiya ishlari rejalashtirilgan.

Uchinchi bosqich (2025–2030 yillar): Jahon bankining GFMR fondidan grant mablag‘lari jalb etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ushbu bosqichda keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshiriladi.


Loyihaning ijtimoiy ahamiyati va Jahon banki talablariga muvofiq, uni amalga oshirish jarayonida atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlarni baholash, xavfsizlik choralari ta’minlash hamda manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish belgilangan.

Shu munosabat bilan, loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlari, xavfsizlik choralari va manfaatdor tomonlar fikrlarini muhokama qilish maqsadida 2025-yil 3-oktabr kuni soat 15:00 da “O‘ztransgaz” AJ ijroiya apparati binosida uchrashuv o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Siz rahbarlik qilayotgan vazirlik, qo‘mita va uyushmadan ushbu uchrashuvda ishtirok etish uchun tegishli mutaxassislarni (F.I.Sh. va lavozimi ko‘rsatilgan holda) yuborishda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Hurmat bilan,

Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.



Sh. Safarov

5-ilova. Shikoyat arizasini topshirish shakli namunasi

Shikoyat shakli			
Shikoyatning ro'yxatga olish raqami (SHKM uchun mas'ul shaxs tomonidan to'ldiriladi):			
Bog'lanish ma'lumotlari (anonim tarzda ham topshirilishi mumkin)	Ism (ism-familiya):		
	Manzili:		
	Telefon:		
	Email:		
Bog'lanishning afzal yo'li (birini belgilang)	Pochta orqali: <input type="checkbox"/>	Telefon orqali: <input type="checkbox"/>	E-mail orqali: <input type="checkbox"/>
Afzal ko'rilgan til	<input type="checkbox"/> O'zbekcha	<input type="checkbox"/> Ruscha	<input type="checkbox"/> boshqa _____
Shikoyatingiz tafsilotlarini keltiring. Muammoni batafsil tasvirlab bering: kimga nisbatan, qachon va qayerda bu sodir bo'ldi, necha marta ro'y bergan va h.k. Qancha batafsil yozsangiz, shuncha yaxshi.			
Agar shikoyatingiz bo'yicha qandaydir yechim bo'lsa, uni taklif qiling. Sizningcha, Bandlikka ko'maklashish markazi yoki boshqa tomon/shaxs muammoni hal qilish uchun nimadir qila oladimi?			
Ushbu shaklni loyihaga qaysi yo'l bilan topshirdingiz?	Sayt orqali <input type="checkbox"/>	email <input type="checkbox"/>	Qo'lda olib bordim <input type="checkbox"/>
	Shaxsan borib <input type="checkbox"/>	Telefon orqali <input type="checkbox"/>	Boshqa (aniqlik kiriting) <input type="checkbox"/>
Ushbu shaklni kim to'ldirdi (agar yuqorida ko'rsatilgan shaxs bo'lmasa)?	Ism va bog'anish ma'lumotlari:		
Imzo			
Mas'uliyat yuklangan vakolatli mas'ul shaxs ismi			
Hal qilindimi yoki ko'rib chiqish uchun Shikoyatlarni ko'rib chiqish 1-qo'mitaga yuborildimi?	<input type="checkbox"/> Ko'rib chiqildi	<input type="checkbox"/> Yuborildi	Yuborilgan bo'lsa, sanasi:
Hal qilindimi yoki ko'rib chiqish uchun Shikoyatlarni ko'rib chiqish 2-qo'mitaga yuborildimi?	<input type="checkbox"/> Ko'rib chiqildi	<input type="checkbox"/> Yuborildi	Yuborilgan bo'lsa, sanasi:
Yakunlash			
Yakuniy yechim (qisqacha tasvirlang)			
	Qosqacha keltiriladi	Qabul qilindimi? (Ha/Yo'q)	Tasdiqlash uchun imzo
1-taklif etilgan yechim			
2-taklif etilgan yechim			
3-taklif etilgan yechim			